

**ISLOM DINIDA FARZAND TARBIYASI**

*Mualliflar: O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti PR va menejment fakulteti Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi 2-bosqich talabsi Ne'matova Mashhura G'ayrat qizi, universitet Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasи o'qituvchisi Dilorom Abdullayeva (Dinshunoslik fani o'qituvchisi)*

Farzand tarbiyasi Islom dinida ma'naviy javobgarliklardan biri sanaladi. Alloh taolo Qur'oni karimda va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarda ota-onani farzandlariga mehribon bo'lishga, ularni halol yo'lida tarbiyalashga da'vat etadi. Farzand ota-onaga berilgan ilohiy omonat bo'lib, ularning qalbini poklik, ezungulik va imon bilan boyitish har bir musulmonning burchidir.

#### Tarbiyaning diniy asoslari

Farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar Qur'oni karim va hadislardan asosida aniq belgilangan. Qur'oni karimda Luqmon (alayhissalom) o'z o'g'liga aytgan pand-nasihatlari bunga yorqin misoldir:

"Ey o'g'il! Allohga shirk keltirma! Chunki shirk — buyuk zulmdir!" (Luqmon surasi, 13-oyat).

Ko'rinish turibdiki, bu oyatning o'zi bolalarni eng avvalo to'g'ri e'tiqodda tarbiyalash kerakligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Islom ta'limotida halol rizq topish, farzandlarga ilm o'rgatish va ularga yaxshi odoblarni singdirish tarbiya jarayonining muhim qismi ekanligi qayd etilgan.

#### Payg'ambarimizning o'rnak tarbiyasi

Payg'ambarimiz (s.a.v.) hayotida bolalarga nisbatan ko'rsatilgan mehr va e'tibor alohida ahamiyatga ega. U zot Hasan va Husayn (r.a.) bilan muomala qilishda mehribonlik, bolalarning ruhini tushunish va ularni himoya qilish naqadar muhim ekanligini ko'rsatib berganlar. Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar:

"Hech bir ota o'z farzandiga yaxshi odobdan afzal narsa qoldirgan emas."

Bu hadis har bir ota-onaga farzandlarga nafaqat moddiy ta'minot, balki ularning ma'naviy tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini eslatadi.

#### Farzand tarbiyasida ma'naviy javobgarlik

Islom ota-onani faqat o'z farzandining emas, balki butun jamiyatning oldidagi ma'naviy mas'uliyatini ham anglashga undaydi. Farzandning dunyo va oxiratda saodatli bo'lishi uchun ota-ona uni faqatgina dunyoviy bilim bilan emas, balki Allohga yaqinlik, sabr, shukr kabi fazilatlar bilan tarbiyalashi lozim. Tarbiya jarayonida quyidagilar muhim hisoblanadi:

- Halol va pok rizq: Harom luqma farzandning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Odob va axloq: Bolalarda halollik,adolat, vafo va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish.
- Din ilmlarini o'rgatish: Qur'on o'qishni o'rgatish va Payg'ambarimizning hayoti bilan tanishtirish.

Xulosa qilib aytganda Islom farzand tarbiyasini ota-onaning asosiy vazifasi deb biladi. Bu jarayon nafaqat shaxsiy javobgarlikni, balki jamiatning, butun musulmon ummatining farzandlar o'rtasida ezgulik va e'tiqodni tarqatishda birdamligini talab etadi. Ota-onan o'z farzandini nafaqat bu dunyo uchun, balki oxirat uchun ham tayyorlashga intilishi kerak. Zero, farzandni e'tiqodli, odobli va ilmli qilib voyaga yetkazish musulmon ota-onaning eng ulug' vazifalaridan biridir.